

## Naktab

Bolani maktabga joylashtirish uchun, zarur:

- siz bolani maktabga bermoqchi bo'lgan rayonda registrasiyaga ega bo'lish va ota yo onaning Rossiyada qonuniy bo'lishi asoslari;
- eng yaqin maktab ma'muriyati yoki mahalliy ma'muriyat maorifat bo'limiga murojaat etish va hujjatlarni olib borish:
  1. Bola tug'ilgani borasidagi guvochnoma
  2. Bola va ota-onalardan birining pasporti
  3. Bola va ota-onalardan birining muhojirlik kartasi
  4. Bola va ota-onalardan birining registratsiyasi (muhojirlik qaydiga qo'nganlik haqidagi bildiruv)
  5. Oldingi maktabdan tabel (baholar haqida guvochnoma)
  6. O26 formasidagi tibbiy ma'lumot, emlashlar haqidagi sertifikat.

Bu hujjatlarning hammasi rus tiliga tarjima qilinishi va notarius tasdiqlashi zarur. Buni notarius bo'lgan har qanday tarjimalar byurossida qilish mumkin.

Agar sizning bolangiz rus tilini yaxshi bilmasa va maktab dasturi u vatanida o'qiganiga qaraganda keskin farq qilsa, qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bunday holda bolani bir yil keyingi sinfga olishi mumkin – u erda unga o'qish osonroq bo'ladi. Sinf rahbari bilan muloqotda bo'lishga va ona-onalar yig'ilishlariga borishga tortinmang.

Shuningdek turli xil to'garaklar va seksiyalar, til o'rganish kurslari va bolalar hamda o'smirlar uchun boshqa tadbirlar bolaga yangi do'ztlar topishda va qiyinchiliklarni engishda yordam berishi mumkin.

Bolalarning rus tilini mustaqil o'rganishlari uchun foydalanish mumkin:

- Института русского языка им. А.С. Пушкина «Русский язык для наших детей» portali [rus4chld.pushkininstitute.ru](http://rus4chld.pushkininstitute.ru)
- rus tilini mustaqil o'rganish va bolalarning ijtimoiy-madaniy moslashuvlari uchun materiallar «Добро пожаловать в Ленинградскую область!» saytida [migrantlenobl.ru/chitaj-i-smotri/detyam/](http://migrantlenobl.ru/chitaj-i-smotri/detyam/)
- sayt <https://детиздесь.рф/>

## FOYDALI MULOQOTLAR

**Комитет общего и профессионального образования Ленинградской области** (Leningrad viloyatidagi maktablar va bolalar bog'chalari haqida ma'lumotlar, bolani bolalar bog'chasi yoki maktabga joylashtirish borasida ariza yo shikoyatlar)

sayt: [www.edu.lenobl.ru](http://www.edu.lenobl.ru)

e-mail: [office\\_edu@lenreg.ru](mailto:office_edu@lenreg.ru)

tel.: 8 (812) 539-44-50, 8 (812) 539-50-90

Bolalarni birinchi sinfga joylashtirish masalalariga oid maslahatlar:

**8(812) 539-49-23, 8(812) 539-44-51**

**Уполномоченный по правам ребенка в Ленинградской области** (bolani bolalar bog'chasi yoki maktabga joylashtirishda qiyinchilik tug'ilgandagi murojaat)

sayt: [47deti.ru](http://47deti.ru)

e-mail: [mail@47deti.ru](mailto:mail@47deti.ru)

tel.: 8 (812) 400-36-49, 8 (812) 710-00-15

## ROSSIYADAGI HAYOTGA QANDAY MOSLASHISH MUMKIN

Rossiyaga osonroq moslashib olish uchun, mahalliy aholi bilan ko'proq muloqotda bo'lishga, do'stlar orttirishga, bayramlar va madaniy tadbirlarda qatnashishga, kino, muzey, teatr, kutubxonalariga tez-tez borib turishga intiling.

Rus tilingizni yaxshilang.

Buning uchun, masalan, quyidagi resurslardan foydalanish mumkin:

- TORFL GO – mobil ilova orqali rus tili va chet tilidan test topshirish
- [pushkininstitute.ru](http://pushkininstitute.ru) – «Образование на русском» portali
- Россия для всех – rus tili, Rossiya tarixi va qonunchilik asoslarini o'rganish uchun mobil ilova.

Leningrad viloyati – diqqatga sazovor ajoyib tabiiy va tarixiy-madaniy joylari, boy madaniy hayoti bilan tanilgan mintaqa. Leningrad viloyatining diqqatga sazovor joylari, qiziqarli voqealari va madaniyati bilan Madaniyat va turizmga oid qo'mitaning rasmiy turistik portalida batafsil tanishish mumkin - [lentavel.ru](http://lentavel.ru)

## FOYDALI AXBOROT RESURLARI

**migrantlenobl.ru** – Mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolari uchun «Добро пожаловать в Ленинградскую область!» sayti va mobil ilovasi: chet ellik fuqarolar uchun rus, o'zbek va tojik tillarida mintaqadagi foydali va qiziqarli ma'lumotlar mavjud, mundarijasiga muhojirlik va mehnat qonunchiligi kiritilgan, foydali maslahatlarni va muloqot yo'llarini topish mumkin bo'lgan rasmiy axborot portali

**migrussia.ru** – «Миграция и мигранты: информационный портал для мигрантов и работающих с ними специалистов»

**russia-edu.minobrnauki.gov.ru** – Министерства образования и науки РФ ning chet ellik fuqarolarni o'rta kasbiy va oliy o'quv yurtlarida o'qitish uchun tanlab olinadigan rasmiy sayti

## BEPUH HUQUQIY YORDAM

**БФ «ПСП-фонд»**

<https://vk.com/pspfond>, [psp-f.org](http://psp-f.org), [migrussia.ru](http://migrussia.ru)

Chet ellik fuqarolar uchun Leningrad viloyatidagi «ishonch telefoni»:

+7 (953) 141-31-09



**БФ «ПСП-ФОНД»**

*Буклет «Медицинская помощь. Образование детей. Социальная и культурная адаптация. Советы для женщин-мигрантов» (на узбекском языке)*

*Разработка текста: БФ «ПСП-фонд»*

*Авторы-составители: Якимов А.Н., Гончарова Д.В.*

*Редактор: Панич Б.Л.*

*Тираж 2000 экз.*

*Изготовлено в рамках проекта «Школа мигранта. Добро пожаловать в Ленинградскую область!» комитета по местному самоуправлению, межнациональным и межконфессиональным отношениям Ленинградской области.*



КОМИТЕТ ПО МЕСТНОМУ  
САМОУПРАВЛЕНИЮ,  
МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫМ  
И МЕЖКОНФЕССИОНАЛЬНЫМ  
ОТНОШЕНИЯМ  
ЛЕНИНГРАДСКОЙ ОБЛАСТИ



migrantlenobl

## Muhojir maktabi

# Leningrad viloyatiga xush kelibsiz!

## Tibbiy yordam Bolalar ta'limi Ijtimoiy va madaniy moslashuv

## Muhojir ayollar uchun maslahatlar

2022

## TIBBIY YORDAMNI QANDAY OLISH MUMKIN

**Agar tez yordam zarur bo'lsa – 103 (tez yordam) yoki 112 (shoshilinch xizmatlarning yagona raqami)ga qo'nh'iroq qiling – bepul, OMC yoki ДМС polislarisiz.**

Agar siz yo sizning bolalaringizga tez tibbiy yordam ko'rsatishni rad etishsa yoki pul talab qilishsa, o'z huquqlaringizni himoya qilishingiz uchun yozma rad javobini talab qilishingiz zarur.

**Yodda tuting, barcha chet ellik fuqarolar (shu jumladan, bolalar) amaldagi tibbiy sug'urta polisiga ega bo'lishlari shart.** Bu sizga va sizning bolalaringizga zarur davolanishni olishga va jarimaga tortilmaslik, hatto mamlakat hududidan chiqarib yuborish oldini olishga yordam beradi. Polisi Rossiyaga kelgan birinchi kunda rasmiylashtirish zarur.

Tibbiy polis ikki xil turda bo'lishi mumkin:

- ДМС (ixtiyoriy tibbiy sug'urta) – pullik
- OMC (majburiy tibbiy sug'urta) – bepul

ДМС polisi quyidagilar uchun huquq beradi:

- poliklinika, bemorxonada shoshilinch yordam;
- tez va to'xtatib bo'lmas tibbiy yordam;
- ДМС shartnomasida ko'rsatilgan boshqa xizmatlar.

Sug'urta shartnomasida ko'rsatilmagah tibbiy yordam uchun qo'shimcha haq to'lashga to'g'ri keladi.

ДМС polisi qimmatida unda yozilgan tibbiy xizmatlar va amal qilish muddatiga bog'liq. Mehnat muhojirlari uchun eng arzon ДМС polisi qoidaga ko'ra faqat davlat poliklinikalari va bemorxonalarida ko'rsatiladigan tez va shoshilinch yordam narxini to'laydi.

Chet ellik fuqarolar bolalari uchun ДМС polisi – odatda kattalar uchun polisga qaraganda qimmatroq turadi. Emizikli va yangi tug'ilgan bolalar uchun ДМС polislarini yanada qimmatroq, chunki ular tez-tez kasallanishlari mumkin. ДМС polisini bola maktabga borayotganida so'rashlari mumkin.

Har qanday holatda ham bolalar uchun tez tibbiy yordam ko'rsatilishini yodda tutmoq muhimdir!

OMC polisi bepul davlat rejali tibbiy yordamini olish uchun huquq beradi.

Siz bepul OMC polisini qayddan o'tgan joyingisdagi poliklinikada rasmiylashtirishingiz mumkin, agar siz:

- EOII davlatlari (Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston) fuqarosi bo'lsangiz va mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan bo'lsangiz yoki quyidagilarga ega bo'lsangiz:
- vaqtincha yashash ijozati (РВП)ga
- yashash huquqi (ВНЖ)ga
- vaqtincha boshpana berilgani haqidagi shahodatnomaga
- qochqin ayol guvohnomasiga.

OMC polisini rasmiylashtirish uchun quyidagi hujjatlar zarur:

- pasport yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjat;
- СНИЛС;
- mehnat shartnomasi;
- kelganlik haqidagi (registrasuya) varaqasining uzma qismi yoki uning kelish joyi va vaqti ko'rsatilgan nusxasi.

RFda ishlayotgan EOII fuqarolari uchun OMC polisining amal qilish muddati – taqvim yilining oxirigacha, lekin mehyat shartnomasining amal qilish muddatidan ko'pga emas.

Albatta polisini nusxalatib oling, sizga polisini bergan sug'urta tashkiloti telefoni va atalishini eslab oling – bu agar polisini yo'qotsangiz, uni tiklashingizga yordam beradi.

Agar sizga va bolalaringizga rejali pullik davolanish talab qilinsa, davolash qimmat kelishilgan holatda siz bilan tibbiy xizmat ko'rsatishga oid shartnoma tuzishlari zarur.

Agar bemorxonada tibbiy xizmatlarga haq to'lashni talab qilib, sizning hujjatlaringizni olib qo'yishsa – bu noqonuniy. Bunday holatlarda prokuratura yo politsiyaga xabar qiling!

## Rossiyada bola tug'ilishi

Agar sizda OMC polisi bo'lmasa, va siz homiladorlik paytida ayollar maslahatxonasida vrach-ginekolog nazoratida bo'lishni rejalashtirsangiz, sizga tibbiy sug'urtaning maxsus dasturi zarur bo'ladi, chunki odatdagi ДМС polisi bunday xarajatlarni qoplay olmaydi. Polis rasmiylashtirilayotganda albatta bu haqida ayting.

Rossiyada tug'ruqxonada bo'lish uchun tahlillar va ko'riklar boryo'qligi talab etiladi. Agar sizda bunday tahlil va hujjatlar yo'q bo'lsa, sizni qabul qilishadi, lekin maxsus nazorat bo'limiga yotqizishadi.

Tug'ruqning o'zi uchun pul olinmaydi, chunki u tez tibbiy yordam hisoblanadi, lekin keyingi tibbiy yordam, ona va bolaga qarov, nazorat pullik bo'ladi.

Tug'ruqxonada sizga bola tug'ilganligi to'g'risida bepul ma'lumotnoma berishlari zarur, bundan so'ng ma'lumotnomani olib rayon ЗАГС bolimiga borishingiz va bola tug'ilganu borasida shahodatnoma olishingiz zarur.

Tez yordam olib ketgan kishilar haqida ma'lumot olish uchun Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati bo'yicha baxtsiz hodisalarni qayd qilish byurosiga murojaat qiling: 8 (812) 573-66-66, 8 (812) 573-66-63.

Agar tez yordam chaqiriqqa kelmasa yoki davolashni rad etishsa, tez yordam ishiga oid shikoyat bilan qo'ng'iroq qiling: 8 (812) 456-11-33 (Leningrad viloyati).

Tibbiy yordam olishga oid muammo paydo bo'lganda, Министерства здравоохранения ning «ishonch telefoni» orqali murojat eting: 8 (800) 200-03-89.

## FOYDALI MULOQOTLAR

**Комитет по здравоохранению Ленинградской области** (tibbiy yordam olishdagi murakkabliklar bo'lganda):

sayt: health.lenobl.ru  
e-mail: tzmk.lenobl@mail.ru  
tel.: 8 (812) 679-60-04

**Территориальный орган Росздравнадзора по г. Санкт-Петербургу и Ленинградской области** (tibbiy yordam olishdagi murakkabliklar bo'lganda):

sayt: 78reg.roszdravnadzor.gov.ru  
e-mail: info@reg78.roszdravnadzor.gov.ru  
tel.: 8 (812) 314-67-89

## QANDAY QILIB IJTIMOY YORDAM OLISH MUMKIN

Agar sizda yashash uchun huquq, fuqaroligi yo'q shaxs guvohnomasi, qochqin ayol guvohnomasi bor bo'lsa yoki RFda vaqtincha boshpanangiz bo'lmasa, siz ijtimoiy qo'llov olish uchun ariza yozish huquqiga egasiz. Shuningdek vatandoshlarni ko'chirish dasturi ishtirokchisi bo'lgan ayollar va rossiya fuqarolarining oila a'zolari ham ijtimoiy yordamdan foydalanish imkoniyatiga egadirlar.

Agar hayot sharoitini yomonlashtiruvchi holatlar, masalan, og'ir kasallik, nogironlik, yashash joyining yo'qligi, ish yo'qligi, tirikchilik uchun mablag' yo'qligi, oilaning og'ir kasallangan a'zolariga qarov zarurligi, oilada zo'ravonlik va hujumkor harakat kabi hollar bo'lganida sizni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyojli deb topishlari mumkin.

Ijtimoiy yordam olish uchun qayddan o'tilgan erdagi rayon aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish kompleks markazlari (КЦСОН)ga yoki o'zingizning rayoningiz ma'muriyatining aholini ijtimoiy himoyalash davlat maqomotlariga murojaat etish zarur.

## FOYDALI MULOQOTLAR

**Комитет по социальной защите населения Ленинградской области** (ijtimoiy qo'llov olish):

sayt: social.lenobl.ru  
e-mail: ktszn@lenreg.ru  
tel.: 8 (812) 539-46-46

**Leningrad viloyatining Yagona ijtimoiy telefoni:** 8 (800) 350-06-05

## BOLA QANDAY QILIB BOLALAR BOG'CHASI YOKI MAKTABGA BERILADI

Bolalar RFda qonuniy asoslarda bo'lishlari zarur – muhojirlik kartasi, tibbiy sug'urta polisi va amaldagi muhojirlik qaydi (kelgan joyidagi registratsiya)ga ega bo'lishlari zarur.

**Chet ellik fuqarolarning 18 yoshdan kichik bo'lgan bolalari RF da ishlash huquqiga ega emaslar!**

**Maktab yoshidagi bolalarning ota-onalari qonunga ko'ra bolani maktabga berishga majburlirlar!**

**Chet ellik fuqarolarning bolalari RF fuqarolari bolalari bilan teng holda davlat bolalar bog'chalari va maktablariga bepul qatnash huquqiga egadirlar.**

## Bolalar bog'chasi

Bolani bolalar bog'chasiga yozdirish uchun qayddan o'tgan joyingizdagi МФЦ (ko'p vazifali markaz)ga murojaat eting. Bolalar bog'chalari o'rinlar soni cheklangan, shuning uchun yaxshisi oldinroq yozdirib qo'ying!

Leningrad viloyatidagi МФЦ lar ro'yxati: gu.spb.ru/mfc,

МФЦ ning «ishonch telefoni»: 8-800-101-47-47, 8-812-775-47-47